

«ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI»

Farg'onan viloyati Qo'shtepa tumani.

36-umumita'lim maktabining.

ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Xoshimova Nasibaxon Ismoilovna

Annotatsiya: XXI asr ta'lif va tarbiyasining asosiy maqsadlaridan biri – kreativ fikrlaydigan, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor shahsni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirishning yo'llari, usullari va metodlari haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, dars, metod, usul, vocita, kreativlik.

Tez yangilanib rivoj topayotgan zamonamiz eng avvalo innovatsiyaga ega axborot, yangi texnologiyalar yaratish, qadriyatli ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, inson resurslaridan keng va oqilona foydalanish payti kelganidan darak beradi. Yangi axborotni maqsadli tezda qabul etish, oydinlashtirish, tahlil asosida amaliyotda qo'llash, tafakkurdagi sintez, solishtirish, abstraktlash, konkretlashtirish kabi jarayonlarni ishga solib innovatsiyalar yaratishga harakat etish, ularni jahon bozoriga chiqarish har bir ijodiy faoliyat ko'rsatib kelayotgan shaxsdan muayyan tafakkur haqidagi bilimlar, malakalar, ko'nikmalarni rivojini talab etadi.

XXI – asr ta'lif-tarbiyasi o'qituvchining yuqori darajadagi bilimlari, malakalari, ko'nikmalari, shaxsiy sifat, xislatlari bilan bog'liq. Hozirgi globallashuv jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari ta'lif-tarbiya jarayonida shaxsnинг intellektual qobiliyatlarini o'stirish orqali unda mavjud axborotlar oqimini qabul qilish, tushunish, fikrlash va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Chunki, shaxs bu ta'lif tizimidagi axborotlar oqimining faol

iste'molchisi bo'lishi bilan bir qatorda, uni tahlil qilish va amalga oshirish jarayonida ham yetakchi sub'ekt vazifasini o'taydi.

Bu esa undan ijodkorlik, izlanuvchanlik va nostandard tafakkurni talab etadi. Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. SHaxsnинг kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. SHuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

Kreativlik – shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy olamni insonning maqsad va vazifalariga, uning ehtiyojlari, istaklari, imkoniyatlariga muvofiq tarzda o'zgartirish borasidagi faolligidir. Kreativlik insonni aql-zakovatining barcha ijobjiy safatlarini o'zida mujasamlashtirgan yangilik yaratish bilan bog'liq bo'lga alohida faollik va mustaqillik turi sanaladi. Kreativlik psixologiyasining asoschisi D.Gilfordning fikricha, shaxsnинг ijodkorligi ko'proq uning intellektual salohiyati, aqliy qobiliyatları bilan bog'liq bo'lib, ular asosan ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsdagi kreativlikning shakllanishi bevosita ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbattan o'ziga xos innovatsion yondoshuvni talab etadi. Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ularning ongida ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilishga erishish lozim. Shuning uchun zamonaviy texnologiyalar asosida o'tilayotgan darslarda Grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchining nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi. Ona tili ta'limining bosh maqsadi bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Ona tili mashg'ulotlari bosqichli ketma-ketlik, shakl bilan mazmun aloqadorligi, tilshunoslik bo'limlarining o'zaro zich bog'liqligi asoslarida ko'rildi. Shuning uchun beshinchchi sinfning birinchi choragi sintaksis bo'yicha zarur tushunchalarni: Sodda va qo'shma gap; Gapning markazi; Gap bo'laklari; Undalma va uyushiqbo'laklar; Ko'chirma gap va ulardagi tinish belgilari kabilarni o'zlashtirishga bag'ishlanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Pedagog faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasini prof. N.Sayidahmedov quyidagi mezonlar asosida alohida ajratib ko'rsatgan.

1. Tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad o'quvchi - talaba tomonidan didaktik, jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari.
2. Ta'lim mazmunini o'quv elementlari yordamida bayon qilishda abstraksiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi.
3. O'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichlarining yetarlicha mantiqiy qat'yanligi – didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi.
4. O'quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi.
5. O'qituvchining qoidabop (algoritmlı) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo'lgan chetga chiqish chegarasining ko'rsatilishi.
6. O'quvchi va o'qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, va boshqalar).
7. O'qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi. Kreativ fikrlashini shakllantirishda o'qituvchi o'quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

Bunda o'qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va kutilayotgan natijalar bevosita ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi. Kreativ fikrlashini shakllantirishning muhim vositasi – interfaol o'qitish metodlaridir. «Keys-stadi», «SCORE», «SWOT-tahlil»,

«Sinkveyn», «FSMU», «Xulosalash» (Rezyume), «Klaster», «Labirint», «Qora quti», «Charxpakalak» metodlari o'quvchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o'qitish maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Interfaol ta'lim sharoitidagi bellashuv, raqobat, tortishuv ruhiyati shaxsning intelektal faolligiga kuchli ta'sir qiadi. Bu o'quvchilarni uyushgan holda muamoni yechishga bo'lgan harakatlarida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun ona tili darslarida yoki bundan tashqari mashg'ulotlarda quyidagi kreativ metodlardan foydalanish mumkin:

-O'quvchilarga ijodiy fikrlashga doir biror topshiriq berish va natijalarini o'rganish, ularning ijodiy ishlarini ko'rib chiqish ;

-o'quvchilarning qiziqqan mavzularini aniqlash va shu mavzuda suhbat o'tkazish, ularning fikrlarini bayon qilishlarida ijodiy yondashishlari uchun imkon beruvchi zarur shart-sharoit yaratish (suhbat individual yoki guruhli bo'lishi mumkin);

Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish va o'quvchilarning bildirgan har bir fikrlarini inobatga olish;

-O'quvchilar ijodini o'rganish. Bunda o'quvchilarning ijodiy ishlari: insho, yozma ish, erkin mavzuda chizgan rasmlari va boshqalar muhim vositalar hisoblanadi ;

-Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda turli qiziqarli didaktik o'yinlar va noan'anaviy usullardan foydalanib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undash, sinfdagi barcha o'quvchilarni mashg'ulotga qamrab olish.

Ushbu kreativ metodlardan foydalanish, ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish kabi ishlarni amalga oshiradi .

Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchiga kreativ metodlar fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativ metodlarni ona tili darslarida to'g'ri qo'llash insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi chunki bu fan doirasida keng fikrlash qobiliyati yuzaga keladi. Bundan ko'rinish turibdiki ona tili darslarida

kreativ metodlardan foydalanishning ahamiyati yosh o'sib kelayotgan avlod uchun juda samarali va unumli foydalanish kerak bo'lgan metodlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda asosiy pedagogik texnologiyalar imperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, inkulyuziv va boshqa texnologiyalardir. Dars jarayonida bu texnologiyalarni tanlay bilish - bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Xulosa qilib aytish mumkinki o'qituvchi ko'tarinki kayfiyatda va o'quvchilarni charchatmay dars o'tishi uchun uning zaxirasida darsning ahamiyatini oshiruvchi bir qancha metodlar bo'lishi zarur .Ayniqsa ular orasida ona tili darslarida kreativ metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.Shuning uchun hozirgi kunda bizning ta'limga kirib kelayotgan turli kreativ metodlari o'z ahamiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
2. Mavlonova I.V. "O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda fe'l nisbatlaridan foydalanish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent